

FUTBOL SPORT TURI BILAN SHUG'ULLANUVCHI O'SMIR YOSHDAGI O'GIL BOLALARNING AYRIM JISMONIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI

M.Dumayeva

Andijon davlat pedogogika insituti magistr 1kursi

Annotatsiya: Bolalarni sogʻlom jismoniy rivojlanishi, oʻquv faoliyati va ish qobiliyatini yuqori darajada saqlab qolishi, kasalliklarini oldini olish ishlarini tashkil qilish dolzarb muammolaridan biridir. Ularni yechish uchun aholining jismoniy rivojlanishini ekologik sharoitga bogʻliq holda oʻrganishni ahamiyati katta.

Kalit soʻzlar: tana massasi, koʻkrak qafasi aylanasi, oʻpkaning tiriklik sigʻimi, muskullar kuchi

Abstract: Healthy physical development of children, preservation of educational activity and working ability at a high level, organization of disease prevention is one of the urgent problems. To solve them, it is important to study the physical development of the population depending on the environmental conditions.

Key words: body mass, chest circumference, lung capacity, muscle strength

Аннотация: Здоровое физическое развитие детей, сохранение учебной активности и трудоспособности на высоком уровне, организация профилактики заболеваний является одной из актуальных задач. Для их решения важно изучить физическое развитие населения в зависимости от условий окружающей среды.

Ключевые слова: масса тела, окружность грудной клетки, объем легких, мышечная сила.

Har qanday sport turi bilan shugʻullangan bola jismonan sogʻlom boʻlib, u kelajakda sogʻlom muhitini yaratishni asosiy meʼzoni hisoblanadi. Yurtimizning shaxar va qishloqlarida turli sport komplekslarining ochilishi har bir yosh avlodni barkamol rivojlanishiga qaratilgandir. Vatanimizning har bir sportchisi turli dunyo musobaqalarida faxrli oʻrinlarni olib qaytishmoqdalar. Sportchilarimizning yuksak yutuqlarga erishishi davlatimizning ularga boʻlgan eʼtibori va yaratib berilgan imkoniyatlaridandir. Oʻsmir yoshdagi turli sport turi bilan shugʻullanuvchi oʻquvchilarning jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgalik koʻrsatkichlarini vaqti – vaqti bilan oʻrganish va kuzatish orqali hamda hayot sharoitlarini oʻzgarishiga qarab, ularni qanchalik darajada sogʻlom ulgʻayotganligi haqida maʼlumotga ega boʻlish imkoniyatini beradi. Jismoniy rivojlanganlik koʻrsatkichlari ichida oʻquvchilarning boʻy uzunligi va tana massasi eng muhim koʻrsatkichlardan hisoblanadi. Shu sababli oʻquvchilarni jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligini oʻrganish va ularga sport mashqlarini taʼsirini kuzatish muhim ahamiyatga ega.

Maʼlumki, sportchilar faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilib borish ularning sihat-salomatligini muhofaza qilishda, turli kasalliklar va patologik oʻzgarishlarning oldini olishda, sportdagi natijalarning yuqori boʻlishiga erishishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada ayniqsa tibbiy-biologik nazorat alohida oʻrin tutadi. Sportchilarni tibbiy-biologik jihatdan nazorat qilishda jismoniy rivojlanish koʻrsatkichlarini aniqlash va oʻrganish oʻziga xos muhim hisoblanadi. Chunki deyarli barcha sport turlarida jismoniy rivojlanish koʻrsatkichlari, jumladan, boʻy uzunligi, tana massasi, koʻkrak qafasi aylanasi, oʻpkaning tiriklik sigʻimi, muskullar kuchi va boshqa qator koʻrsatkichlar natijalarni belgilovchi mezon hisoblanadi. Qolaversa, sportchining salomatlik holati, yosh sportchilarda oʻsish va

rivojlanish darajasi, sportdagi natijalar va boshqalar jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Ma’lumki, fiziologik normal holatda organizmning hamma funksional o‘zgarishlari ma’lum ritmda amalga oshadi, bu jarayon fiziologik funksiyalarni o‘z vaqtidagi koordinatsiyasini aks ettiradi. Turli omillar taʼsirida ularning kuchi, doimiyligi va xususiyatlariga qarab moslanish reaksiyalar paydo bo‘ladi.

Ular esa, o‘z navbatida, organizmning boshqaruv sistemalari, ayniqsa nerv sistemasi va endokrin sistemalarining holatiga bog‘liq. Quyidagi kuzatishlar futbol maktab – internatida futbol sport turi bilan shug‘ullanuvchi o‘smirlar ustida olib borildi. Ishning maqsadi va vazifalari: futbol sport turi bilan shug‘ullanayotgan o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlaridan: bo‘y uzunligi, tana massasi, ko‘krak qafasi aylanasi, o‘pkaning tiriklik sig‘imi, qo‘l dinamometriyasi, yurak urish soni o‘lchanadi va kuzatiladi. futbol sport turlari bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishini o‘rganish.

O‘smirlarning rivojlanishiga sport turlarining taʼsirini o‘rganish. Har xil sport turlari bilan shug‘ullanuvchi o‘smirlarni jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari aniqlanadi. O‘smirlarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini o‘rtacha ko‘rsatkichlarini aniqlash orqali ularning qanchalik darajada sog‘lom o‘sib rivojlanayotganligi aniqlanadi. Sport bilan shug‘ullanish organizmga qanday taʼsir qilish mumkinligi (aʼzolar tizimi) haqida ma’lumot beradi. Olingan natijalar o‘smirlarning jismoniy rivojlanishi va organizmning asosiy tizimlaridan biri – kardio – respirator sistemalarning sport turiga qarab xususiyatlari haqidagi bilimlarni kengaytiradi.

O‘tkazilgan antropometrik ko‘rsatkichlarning natijalari o‘smirlarning individual jismoniy rivojlanishini baholash va ular asosida turli profilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqarishga yordam beradi. Kuzatishlarda olingan natijalar o‘smirlarning jismoniy rivojlanishini belgilovchi normativ ko‘rsatkichlarni ishlab chiqarish uchun qo‘llanishi mumkin. O‘smirlarning sport turiga qarab yurak – tomir va nafas olish sistemalarining fiziologik holatini o‘rganish, maktablarda va maxsus sport muassasalarida jismoniy tarbiya darslari beriladigan yuklamalar miqdorini belgilashga yordam beradi. Futbol sport turi bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy taraqqiyot ko‘rsatkichlarini doimiy ravishda o‘rganib borish va nazorat qilish sport tibbiyoti, sport fiziologiyasi kabi fanlarning oldida turgan eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. O‘rganilayotgan mavzu ana shu masalalarni ma’lum darajada hal etishga yordam beradi. Muhimi shundaki, har xil sport turlari bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘rganish va tahlil qilish sportchilarning sihat-salomatligini, jismoniy ish qobiliyatini aniqlashda, sportdagi natijalarni yuksaltirishda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘rganish orqali sportchining ish qobiliyatini tegishli darajada baholash, sportdagi natijalarni oldindan bashorat qilish imkoniyatlari tug‘iladi. O‘smirlarni jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini o‘rtacha ko‘rsatkichlarini aniqlash orqali ularning qanchalik darajada sog‘lom o‘sib rivojlanayotganligi aniqlanadi.

Sport bilan shug‘ullanish organizmga qanday taʼsir qilish mumkinligi haqida ma’lumot beradi. O‘sish va rivojlanishdagi salbiy holatlar kuzatilsa tegishli chora-tadbirlar ko‘riladi. Olingan o‘rtacha ko‘rsatkichlar jismoniy tarbiya darslari va chiniqish mashg‘ulotlarida jismoniy yuklamalarni tanlash orqali ularni to‘g‘ri tashkil etish imkoniyatini beradi.

O‘smirlik davri harakat tizimining asosiy qismlari va harakat malakalarining shakllanishi eng qulay davr bo‘lib hisoblandi. Organizmning jismoniy rivojlanishi va salomatligi ko‘rsatkichlaridan biri tana massasi va uzunligidir. Tana uzunligi jismoniy rivojlanishning ayrim belgilarining asosidir, tana massasi esa eng sezuvchan parametrlardan biri bo‘lib, turli kasalliklar va ovqatlanishning buzilishi natijasida o‘zgaruvchan dinamikaga ega.

Muntazam jismoniy mashq va sport bilan shugullanish o‘smir organizmning sport turiga bog‘liq xolida qaysidir tizimlarda o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Biz bularni organish maqsadida muntazam sport bilan shugullanuvchi yani futbol sport turi bilan shugullanuvchi osmir yoshdagi (17yosh) ogil bolalarning ayrim jismoniy rivojlanish korsatkichlarini taxlil qildik. tajriba ishlarimizi andijon shaxridagi futbol maktabidagi futbol sport turi bilan shug‘ullanuvchi sportchilarni 25tasida ixtiyoriy xolda tanlab oldik va ularni tana og‘irligi boyning umumiy uzunligi yurak urushlar soni opkaning tiriklik sig‘imi va ko‘krak qafas aylanasi ko‘rsatkichlarini taxlil qildik. Olingan natijalarimiz quyidagilarni tashkil qildi: tana og‘irligi futbol bilan shugullanuvchi osmir ogil bolalarda ortacha $64,2 \pm 1,4$ kg boyning umumiy uzunligi ortacha $170,8 \pm 1,4$ smni tashkil qilgan bo'lsa kokrak qafas aylanasi tinch xolatda sut bezlari roparasidan olchaliganda ortacha $83,6 \pm 0,8$ sm tashkil qildi fiziologik olachamlarning natijalaridan yurak urushlar Soni ortacha $67,3 \pm 1,1$ ta ni tashkil qilgan bo'lsa o‘pkaning tiriklik sig‘imi o‘rtacha $3386,6 \pm 68,7$ ml ni tashkil qildi

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlar organizmida sport bilan shug‘ullanish natijasida turli organ va sistemalarning faoliyatida yoshga va sport turiga qarab o‘zgarishlar kuzatildi. Olingan natijalar o‘smirlarning jismoniy rivojlanishi o‘ziga hos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Klemesheva L.S., Ergashev M.S. Yoshga oid fiziologiya. Toshkent, O‘qituvchi, 1991, 166 b.
2. Сердюковская Г.Н. Влияние факторов окружающей среды на здоровье подрастающего поколения. М., Педагогика, 1991.
3. Хрипкова А.Г., Антопова М.В. Адаптация организма учащихся к учебной и физической нагрузкам. М., Педагогика, 1982, 240 ст